

6-SINF O'QUVCHILARINING YOSH VA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI: TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI VA AMALIY
YONDASHUVLAR

Fozilova Diyora Shuhrat qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyot kafedrasi o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada 6-sinf o'quvchilari, ya'ni 11–12 yoshlilarning yosh va pedagogik-psixologik xususiyatlari rivojlanish psixologiyasi hamda pedagogika nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Ilk o'smirlik davrining biologik, kognitiv va his-tuyg'u jihatlariga to'xtalib, Piaget, Vygotskiy va Erikson g'oyalari bilan ularning o'qitishga aloqasi o'rganiladi. Abstrakt fikrlash, mustaqillikka intilish, tengdoshlar ta'siri, diqqat xususiyatlari, ijodiy faollik, o'z-o'zini anglash va tanqidiy fikrlash kabi yetti asosiy xususiyat har birining ta'lim jarayoniga ta'siri va o'qituvchi uchun amaliy xulosalar bilan birga yoritiladi.

Kalit so'zlar: 6-sinf, ilk o'smirlik, yosh xususiyatlari, kognitiv rivojlanish, Piaget, Vygotskiy, Erikson, abstrakt fikrlash, metakognitsiya, tengdoshlar ta'siri, differentsiatsiya.

Abstract. This article explores the age-related and pedagogical-psychological characteristics of 6th grade students (aged 11–12) through the lens of developmental psychology and pedagogy. Drawing on the theories of Piaget, Vygotsky and Erikson, it examines how the biological, cognitive and emotional shifts of early adolescence shape the learning process. Seven key characteristics – abstract thinking, drive for independence, peer influence, attention patterns, creative engagement, self-awareness and critical thinking – are each discussed with regard to their practical implications for classroom teaching.

Keywords: 6th grade, early adolescence, age-related characteristics, cognitive development, Piaget, Vygotsky, Erikson, abstract thinking, metacognition, peer influence, differentiation.

Kirish

O'n bir-o'n ikki yosh – maktab hayotidagi eng keskin burilish nuqtalaridan biri hisoblanadi. Biroq ota-onalar va hatto ko'pgina pedagoglar ham bu davrdagi yosh xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirishadi. Bu paytda bola "katta" deb hisoblanishga da'vogar, ammo hali kattalarcha qarorlar qabul qilish darajasida bo'lmaydi. Pedagogika va

psixologiya bu davrni “ikkinchi tug‘ilish” deb ataydi, ya’ni faqat tana emas, aql va his-tuyg‘u ham tubdan o‘zgaradi³⁷.

Maktab muhitida bu davr 6-sinf miqyosida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi uchun ham bu sinf boshqalaridan farq qiladi: o‘quvchi ko‘proq savol bera boshlaydi, savolga savol qaytaradi, ba’zan ochiqdan-ochiq e’tiroz bildiradi. Bu rivojlanishning boshlanishi. Va aynan shu rivojlanishni tushungan o‘qituvchigina ta’lim jarayonini to‘g‘ri va samarali olib boradi.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, o‘quvchi yosh xususiyatlariga e’tibor bermay qurilgan darslar nafaqat samarasiz, balki o‘quvchini ta’limdan sovutib qo‘yishi ham mumkin³⁸. Ushbu maqolada yosh xususiyatlari nima ekanligini, ularning o‘qitishga qanday ta’sir qilishini va o‘qituvchi bu bilimdan amalda qanday foydalanishi mumkinligini ko‘rib chiqamiz.

Biologik jihatdan 11–12 yosh – o‘smirlik davrining boshlanish fazasi. Gipofiz bezi gormonlar ishlab chiqarishni kuchaytiradi va bu o‘zgarishlar nafaqat tashqi ko‘rinishga, balki miyaning ishlash tarziga ham ta’sir qiladi. O‘smirlik davrida miyaning mantiqiy qarorlar qabul qiluvchi qismi – prefrontal korteks – hali to‘liq yetilmagan bo‘ladi. Shu sababli ko‘pincha his-tuyg‘ular markazi – limbik tizim ustunlik qilib, o‘quvchi o‘ylamay ish qiladi, impulsiv munosabat bildiradi³⁹. Jumladan, o‘zbek olimlaridan E.G‘oziyev ham shu mazmunda fikr bildirgan: “O‘smirlik yoshida nerv tizimining yuqori qismlari sifat jihatidan o‘sadi, bosh miya po‘stlog‘ida nerv hujayralarining yetilishi tugallanadi. Biroq qo‘zg‘alish jarayonlari tormozlanish jarayonlaridan ustun bo‘lganligi sababli o‘smir kuchli hayajonlanish paytida o‘z xatti-harakatlarini idora eta olmaydi”⁴⁰. Bu jarayonida bolaga “yomon tomonga o‘zgarayotganligi”ga qarab emas, shunchaki unda hali mustaqil qaror qabul qilish jarayoni shakllanib bo‘lmaganligini inobatga olib munosabatda bo‘lish kerak.

“O‘smirlik – insonning butun ontogenezidagi eng murakkab va ziddiyatli bosqich bo‘lib, yangi turmush tarzi va yangi munosabatlar tizimini shakllantirishni taqozo etadi”, degan edi – L.S. Vygotskiy. Bu yoshda o‘smir “Men kimman? Kelajakda kim bo‘laman? Boshqalarga qanday ko‘rinyapman?” degan savollarga javob qidirayotgan bo‘ladi. Demak, uning sinf oldida noto‘g‘ri javob berganida uyalishi, o‘qituvchining tanqidini o‘ta jiddiy qabul qilishi – bularning hammasi mantiqiy. U bilimni emas, o‘zini himoya qilyapti. O‘quvchining “mantiqsiz” ko‘rinadigan xatti-harakatlari odatda biologik yoki psixologik rivojlanishning ko‘zguisidir: tushunish va to‘g‘ri yondashuv ko‘p narsani o‘zgartirishi mumkin.

Asosiy qism


Bolalarning aqliy rivojlanishi va bilish jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha jahon ilm-fanida inqilob qilgan olim Jan Piagetning kuzatuvlariga ko‘ra, 11 yoshdan boshlab bola “konkret operatsiyalar” bosqichidan, ya’ni faqat ko‘rgan va ushlab bo‘ladigan narsalar haqida fikr

³⁷ Steinberg L. (2014). Age of Opportunity: Lessons from the New Science of Adolescence. Houghton Mifflin Harcourt, New York, 2014. P. 3–30. — Blakemore S-J. Inventing Ourselves: The Secret Life of the Teenage Brain. PublicAffairs, New York, 2018. P. 1–24.

³⁸ Roorda D. L. and others. (2011). The Influence of Affective Teacher-Student Relationships on Students, School Engagement. Review of Educational Research, 81(4), P. 493–529. DOI: 10.3102/0034654311421793

³⁹ Casey B. J., Jones R. M., Hare T.A. The Adolescent Brain. Annals of the New York Academy of Sciences, 1124(1), 2008. P. 111–118. DOI: 10.1196/annals.1440.010

⁴⁰ G‘oziev E. Psixologiya. "O‘qituvchi" nashriyot, Toshkent, 1994. B. 136–141.



yurita olish davridan – “formal operatsiyalar” bosqichiga o‘tadi⁴¹. Bu bosqichda u hali ko‘rmagan, faqat tasavvur qila oladigan narsalar haqida ham muhokama qila boshlaydi: “Agar inson ucha olganida dunyo qanday bo‘lardi?”, “Hikoyadagi bu detal nimaning ramzi bo‘lishi mumkin?” kabi savollar endi unga tushunarsiz tuyulmaydi. Bu o‘qituvchi uchun katta imkoniyat. Badiiy matnlardagi metafora, yashirin ma‘no, muallif maqsadi – bularni sinf bilan muhokama qilish 6-sinfda real natija bera boshlaydi. E‘tibor berish kerak bo‘lgan jihat shuki, bu davr hamma o‘smirlarda ham bir vaqtda kechmaydi. Bitta o‘quvchi oson tushunadigan narsani boshqasi tushunmasligi, unga misollar orqali tushuntirish kerak bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi har ikkala holatni ham ko‘ra bilishi kerak.

Mustaqillikka intilishning kuchayishi. 6-sinf o‘quvchisi bilan ishlagan har bir o‘qituvchi “Nima uchun bu topshiriqni bajarishimiz kerak?” degan savol shu yoshda ko‘payishini payqagan. Bu o‘quvchining shu topshiriqni bajarishni istamayotganligining emas – rivojlanishning belgisi. Agar o‘qituvchi har darsda faqat “Buni qiling, bunisini qilmang” deb tursa, o‘quvchi asta-sekin savol bermay, o‘ylamay qo‘yadi. O‘rganish jarayoni – o‘quvchi o‘zi tanlov qilganda, o‘zi savolga javob izlaganda yuz beradi. Shu sababli kamida bitta topshiriqda tanlov berish, topshiriqning bajarilish usulini o‘quvchining o‘ziga qo‘yib berish kerak.

Tengdoshlar ta’sirining ustuvorligi. O‘smirlik kollektivi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kollektiviga qaraganda maktabda ham uyda ham butunlay boshqa o‘rin tutadi. O‘smirlik yoshida o‘quvchilar faollik bilan ijtimoiy hayotga qatnasha boshlaydilar va o‘z o‘rinlarini topishga harakat qiladilar⁴². Bu davrda “boshqalar” rolini ota-onadan ko‘ra tengdoshlar ko‘proq o‘ynaydi. Sinfda “Boshqalar jim turibdi, demak mening fikrim ham noto‘g‘ri” yoki “Hammadan oldin javob bersam, boshqalar mening ustimdan kuladi” degan fikrlar ko‘pincha o‘quvchining xatti-harakatini boshqaradi.


O‘qituvchi bu vaziyatni to‘g‘ri boshqarishi mumkin. Guruhda muhokama qilish, juftlikda ishlash – bular tengdoshlar ta’sirini ijobiy yo‘nalishga o‘zgartiradi. Lekin muhokamadan oldin xavfsiz muhit bo‘lishi shart: o‘quvchi “Noto‘g‘ri javob bersam kulishadi” degan qo‘rquvsiz erkin gapira olishi kerak. Bu muhitni yaratish – bevosita o‘qituvchining vazifasi sanaladi.

Diqqat-e’tiborning beqarorligi. Ko‘plab o‘qituvchilar 6-sinf o‘quvchilari “Darsda boshqa narsalarni o‘ylab o‘tirishadi” deb shikoyat qilishadi. Neyrobiologlar aniqlashganidek, prefrontal korteks to‘liq yetilmaganida diqqat-e’tiborni bir joyda ushlab turish nihoyatda qiyin bo‘ladi. Tadqiqotlar 11–12 yoshlilarda samarali diqqat taxminan 15–20 daqiqa davom etishini ko‘rsatadi, undan keyin eshitish davom etadi, lekin qabul qilish pasayadi⁴³.

⁴¹ Piaget J. (1972). The Psychology of the Child. Basic Books, New York. — Bloom B. S. va boshq. Taxonomy of Educational Objectives. David McKay Company, New York, 1956. P. 1–20.

⁴² Davletshin M.G., Do‘stmuhammedova Sh., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. TDPU nashriyoti, Toshkent, 2004. B. 98–102.

⁴³ Casey B. J., Jones R. M., Hare T. A. (2008). The Adolescent Brain. Annals of the New York Academy of Sciences, 1124(1), 111–126. DOI: 10.1196/annals.1440.010



Bu muammoni intizomni qat'iy talab qilib hal qilib bo'lmaydi. Yechim – dars tuzilmasida. O'qituvchi 45 daqiqani bir xil faoliyat bilan to'ldirsa, dars tugamasdan har ikkala tomon ham charchaydi. Dars davomida turli faoliyat turlarini (o'qish, muhokama, yozish, vizual ish) qo'llash miya uchun “yangilanish” vazifasini o'taydi. Natijada o'quvchida diqqatning barqarorligi oshadi.

Shuningdek, 6-sinfda o'smir o'yin va ijoddan, ya'ni o'zini erkin ifoda qilishdan hali sovimagani bo'ladi. Ya'ni matnни o'qib, o'sha matnning davomini o'ylash, qahramonlar nomidan maktub yozish yoki sahna ko'rinishi tuzish – mavzuning o'quvchi tomonidan chuqur o'zlashtirilishiga olib keladi. O'quvchi o'ynayotgandek his qiladi, lekin aslida fikrlaydi. Bu ham diqqat barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Bu yoshda o'z-o'zini anglash kuchayadi: “Men qanday odamman? Mening kuchim nimada? Boshqalarga qanday ko'rinyapman?” kabi savollarga javob topish aynan o'smirlilikning psixologik asosiy vazifasi hisoblanadi. Aynan shu davrda bitta adolatsiz munosabat yoki boshqalar oldida qilingan no'rin tanqid o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini tushirib yuborishi mumkin.

O'qituvchi har doim bir narsani – o'quvchining shaxsini emas, ishini baholayotganligini unutmasligi kerak: “Bu javob to'liq emas” bilan “Har doimgiday chala bajargansan” degan baho orasida yer bilan osmoncha farq bor. Birinchisi – qayta ishlashga yo'naltirsa, ikkinchisi – aksincha, vazifani bajarishni to'xtatishga sabab bo'ladi.

Tanqidiy fikrlashning shakllanishi. 6-sinf o'quvchisi “Nima uchun?”, “Bu to'g'rimi?”, “Boshqacha bo'lishi mumkinmi?” kabi savollarni bera boshlaydi. Lekin yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu savollarni hamma o'quvchilar ham bermaydi. Shu o'rinda o'qituvchi bu savollarning har bir o'quvchida paydo bo'lishi uchun zamin yaratishi, o'zi javob berishi emas, javob topishga yo'naltirishi kerak.

Debat, munozara, ikki qarama-qarshi fikrni taqqoslash – bular tanqidiy fikrlashni o'stiradi. Ammo e'tibor qilish kerakki, bu yoshda o'quvchi asosiy g'oya bilan o'z fikrini aralashtirib yuborishi mumkin. O'qituvchining buni xato deb emas, o'rganish jarayonining bir qismi deb qabul qilishi, asosiy g'oyani esa, o'quvchining fikrini rad etmasdan yetkazib berishi uning pedagogik mahoratini namoyon etadi.

Yuqorida ta'riflangan xususiyatlarni tushunishda uchta olim – Piaget, Vygotskiy va Eriksonning g'oyalari qo'l keladi. Ular o'quvchiga turli tomonidan yondashadi.

Piaget o'quvchining qanday o'ylayotganini tushuntiradi. Formal operatsiyalar bosqichiga endigina qadam qo'ygan 6-sinf o'quvchisi abstrakt fikrlashga tayyorlanayotgan bo'lsa-da, barcha o'quvchilarda bir xil kechmaydi. Shu sababli o'qituvchi har bir yangi tushunchani avval aniq, ko'rinadigan misoldan boshlashi kerak.

Vygotskiy esa o'quvchi qanday o'rganishini ko'rsatadi. Uning “Yaqin rivojlanish zonasi” g'oyasiga ko'ra, eng samarali o'rganish o'quvchi mustaqil uddalay olmaydigan, lekin yordam

bilan bajara oladigan vazifalar orqali yuz beradi⁴⁴. O‘qituvchi avval ko‘proq ko‘mak beradi, keyin asta-sekin kamaytiradi, nihoyat o‘quvchi mustaqil bajaradi – bu 6-sinf uchun juda mos yondashuv: chunki bu sinfda mustaqillik ishtiyoqi baland bo‘ladi.

Erikson o‘quvchining his-tuyg‘usi va shaxsi haqida fikr yuritadi. “Men kimman?” degan savolga javob izlayotgan o‘smir uchun maktab nafaqat bilim olish maskani, balki o‘zini sinab ko‘rish maydoni hamdi. Bu davrda o‘qituvchi-o‘quvchi munosabati hurmat, xavfsizlik, ishonch borligiga asoslanadi va bu ta’lim sifatiga bevosita ta’sir qiladi.

Yosh xususiyatlariga mos 45 daqiqa. Endi yuqoridagi barcha mulohazalarni birlashtirib, 6-sinf darsi qanday bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritamiz. Eng muhim tamoyil: o‘quvchi o‘tirishi emas, ishtirok etishi lozim. Buning uchun dars tuzilmasida quyidagilar bo‘lishi kerak:

1. Dars qiziqarli savol yoki muammo bilan boshlansin – bu diqqatni jalb qiladi;
2. Faoliyat turlari almashib tursin – bir xil ish 20 daqiqadan oshmasin;
3. Kamida bitta guruh yoki juftlikda ishlansin – tengdoshlar bilan ishlash ehtiyoji qondirilsin;
4. Kamida bitta topshiriqda o‘quvchi o‘zi tanlov qilsin;
5. Dars refleksiya, ya’ni “Bugun nimalarni o‘rgandim?” degan savol bilan tugasin.

Quyidagi jadvalda vaqt taqsimoti bo‘yicha to‘liq aks ettirildi⁴⁵:

№	Bosqich	Faoliyat	Inobatga olingan xususiyat	Vaqt
1.	Jalb etish	Kutilmagan savol yoki qisqa muammo taqdim etiladi; o‘quvchilar dastlabki fikrlarini baham ko‘radi	Diqqat, ichki motivatsiya	5 daqiqa
2.	Fonni faollashtirish	Mavzu bo‘yicha bilganlarini jufti bilan o‘rtoqlashadi	Tengdoshlar munosabati	5 daqiqa
3.	Yangi bilim	O‘qituvchi qisqa tushuntiradi – ko‘pi bilan 10	Diqqat davomiyligi chegarasi	10 daqiqa

⁴⁴ Vygotsky L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, Cambridge, 1978. B. 84–91. — Bruner J. (1976). The Process of Education. Harvard University Press, Cambridge, 1976. P. 24–36.

⁴⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

		daqiqa, vizual ko'rsatma bilan		
4.	Amaliyot	Guruh ishi: muhokama, grafik tuzish yoki ijodiy topshiriq	Ijtimoiy o'rganish, ijodiy faollik	12 daqiqa
5.	Mustaqil ish	O'quvchi ikki variantdan birini tanlab bajaradi	Mustaqillik, tanqidiy fikrlash	9 daqiqa
6.	Refleksiya	"Bugun nima o'rgandim? Qayerda qiynaldim?" – qisqa yozma yoki og'zaki	Metakognitsiya, o'z-o'zini anglash	4 daqiqa

Xulosa


6-sinf o'quvchisi – ba'zan sinov, ba'zan quvonch, har doim esa imkoniyat. U na bolalikning oxirida, na kattalikning boshida turibdi – va aynan shu "oradagi" holat uni pedagogika uchun alohida qiziqarli mavzuga aylantiradi.

Maqolada ko'rilgan xususiyatlar – abstrakt fikrlash, mustaqillik, tengdoshlar ta'siri, diqqat barqarorligi, ijodiy faollik, o'z-o'zini anglash va tanqidiy fikrlash – bular ta'limiy maqsadga erishishda e'tibor berish lozim bo'lgan eng muhim nuqtalardir. Ularning barchasi o'quvchining yoshga xos ehtiyojni ifodalaydi. Va o'qituvchi o'sha ehtiyojni tushunib, unga mos yondashuv topa olsa, dars haqiqiy o'qitish jarayoniga aylanadi.

Piaget, Vygotskiy va Erikson bizga bir xil narsani turlicha usulda aytadi: o'quvchini bilmasdan uni o'qitib bo'lmaydi. 6-sinf o'qituvchisi uchun yosh xususiyatlarini o'rganish – bu nazariy qiziqish emas, balki amaliy zaruriyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Steinberg L. Age of Opportunity: Lessons from the New Science of Adolescence. Houghton Mifflin Harcourt, New York, 2014.
2. Blakemore S.J. Inventing Ourselves: The Secret Life of the Teenage Brain. PublicAffairs, New York, 2018.
3. Piaget J. The Psychology of the Child. Basic Books, New York, 1972.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, Cambridge, 1978.

- 
5. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. W. W. Norton, New York, 1968.
6. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. Plenum, New York, 1985.
7. Bandura A. Social Learning Theory. Prentice Hall, Englewood Cliffs, 1977.
8. Csikszentmihalyi M. Flow: The Psychology of Optimal Experience. Harper & Row, New York, 1990.
9. Bloom B. S. va boshq. Taxonomy of Educational Objectives: Handbook I: Cognitive Domain. David McKay Company, New York, 1956.
10. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2022. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartlari: 6-sinf. UzBMB. <https://uzbmb.uz>
11. Davletshin M.G., Do‘stmuhammedova Sh., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. TDPU nashriyoti, Toshkent, 2004.
12. G‘oziev E. Psixologiya. “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent, 1994.
13. Kosimovna, A. R. UDK: 81.39 PARADIGMATIC PROPERTIES OF DEICTIC UNITS IN THE TEXT.
14. Kosimovna, A. R. UDK: 81.39. Paradigmatic Properties of Deictic Units in the Text.
15. Abduraxmonova, R. N. (2025). Nemis tilidagi diniy matnlarning o‘zbek tiliga qilingan tarjima namunalari asosida deiktik birliklarning lingvopragmatik tahlili. ИЖТИМОЙ-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(11), 177-182.
16. Kosimovna, A. R. N. (2025, November). SOCIODEIXIS AND TEXTUAL DEIXIS IN GERMAN RELIGIOUS TEXTS. In CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY (Vol. 1, No. 7, pp. 842-845).
17. Маншуров, Ш. Т., Утабов, У. А., & Абдуганиева, Ю. Ш. (2023). Отработка данных температуры на с++ и сохранит в файле. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(2), 730-740.
18. Маншуров, Ш. Т., & Абдуганиева, Ю. Ш. (2024). Новейшие технологии интернета связи: от 5G к будущим стандартам передачи данных. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(3), 315-328.
19. Shakhabidinova, A. Y. (2022). Automation of technological processes. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(12), 130-131.
20. Абдуганиева, Ю. Ш. (2023). Автоматизация процессов флотации. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 1097-1105.